

QO‘SHKO‘PIR TUMANI TOPONIMYASIDA NOM YASALISH MASALALAR

Babadjanov Mansurbek Kurbanbayevich

QQDU O‘zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Rahimboyeva Charos Arslonbek qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir tumanida uchraydigan toponimlarning yasash xususiyatlari, ularning leksik-semantik va morfologik tuzilishi, shuningdek, tarixiy-etimologik asoslari tahlil etiladi. Nomlarning morfologik va sintaktik usulda yasalishi, mahalliy joy nomlarida saqlanib qolgan tarixiy qatlamlar, etnonimlar va tabiatga oid belgilar orqali xalqning dunyoqarashi va ijtimoiy hayotining aks etganligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘shko‘pir, toponim, mikrotoponim, morfologik usul, sintaktik usul.

Abstract: This article analyzes the formation characteristics of toponyms found in the Qo‘shko‘pir district of the Khorezm region, focusing on their lexical-semantic and morphological structures, as well as their historical and etymological foundations. It highlights how the morphological and syntactic formation of names, along with historical layers, ethnonyms, and natural features preserved in local place names, reflect the worldview and social life of the population.

Keywords: Koshkopir, toponym, microtoponym, morphological method, syntactic method.

Аннотация: В статье анализируются особенности образования топонимов Кошкوپирского района Хорезмской области, их лексико-семантическая и морфологическая структура, а также их историко-этимологические основы. Морфологическое и синтаксическое строение названий, исторические пласты, сохранившиеся в местных топонимах, этнонимах, природных знаках, отражают мировоззрение и общественную жизнь народа.

Ключевые слова: Кошкوپир, топоним, микротопоним, морфологический метод, синтаксический метод.

Toponimika – joy nomlarining kelib chiqishi, tarkibi, ma’nosi va lingvistik xususiyatlarini o‘rganadigan fan. Har bir hududda toponimlar o‘ziga xos tarixiy, etnolingvistik va madaniy qatlamni aks ettiradi. Ular orqali ma’lum bir hududda yashagan xalqlar, ularning urf-odatlar, diniy qarashlari, hatto iqtisodiy faoliyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bundan tashqari, toponimlar kartografiyada, navigatsiyada, tarixiy tadqiqotlarda va davlat boshqaruvida muhim rol

o‘ynaydi. Qo‘shko‘pir tumani ham bu borada boy toponimik merosga ega bo‘lib, uning nom yasash tizimi o‘ziga xoslik kasb etadi.

Toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko‘p asrlik rivoji mahsulidir. Shu sababli, o‘zbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy tarixiy toponimlar, yaqin o‘tmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonma-yon yashamoqda. Ushbu holat Qo‘shko‘pir tumani mikrotoponimiyasi tizimi uchun ham tegishli. Albatta, toponimiya tizimidagi barcha nomlarning qachon paydo bo‘lganini aniq belgilashning iloji yo‘q. Chunki ko‘pgina nomlarning qachon va kim tomonidan berilgani hozirda unutilgan. Shu sababli joy nomlarining ijodkori xalq, deb baholanadi hamda bunday nomlar tabiiy toponimlar, xalqona nomlar deb yuritiladi.

Har bir davrda yangi nomlar paydo bo‘ladi. Ayrim nomlarning tarixi va paydo bo‘lish asoslari unutilsa-da til xususiyatlari saqlanib qoladi. Bu holatni biz ko‘pgina nomlarni tahlil qilish orqali yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, iste‘moldan chiqqan nomlar o‘rnini to‘ldirish, yangi obyektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bunda ikki yo‘l ko‘zga yorqin tashlanib turadi:

1. Yangi nom yasash usuli.
2. O‘zga tillardan nom o‘zlashtirish usuli.

Shu ikki yo‘l orqali toponimika sohasi boyib bormoqda. Bulardan keng tarqalgani yangi nom yasash usulidir. Bunda tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi nomlar hosil qilish, shuningdek bu usulda tilning milliy ruhi saqlangani uchun ham boshqa usullardan ko‘ra afzal deb qaraladi.

Morfologik usulda nomlar yasashi odatda affiksatsiya yo‘li bilan amalga oshadi. Masalan, -lik, -chi, -jon kabi qo‘shimchalar yordamida yangi joy nomlari shakllanadi. Misol uchun, “Yangilik” nomi -lik qo‘shimchasi yordamida yasalgan, „Vahimchi” nomi esa -chi qo‘shimchasi yordamida yasalgan.

Sintaktik usul esa, joy nomlarining bir necha so‘zdan tashkil topishiga olib keladi. Ushbu usul tilshunoslikda sintaktik usul, so‘z qo‘shish, negizlarni qo‘shish, analitik usul, morfologik-sintaktik usul, kompozitsiya usuli deb ham nomlanib kelinmoqda. Qo‘shko‘pir tumani toponimlarida bunday nomlar asosan ikki yoki undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘lib, ularning grammatik va semantik jihatlari bir butunlikda birlashtiriladi. Masalan, “O‘zbekiyop” (O‘zbek + yop), „Ayronko‘l” (Ayron+ko‘l) nomi joyni va uning funksiyasini ifodalaydigan qo‘shma toponim hisoblanadi.

N. Mingboevning Mirzacho‘l toponimiyasiga bag‘ishlangan ishida Sirg‘ali, Achamayli, Qo‘shnamg‘ali nomlari -li qo‘shimchasi yordamida; Qushchi, Qarapchi nomlari -chi yordamida; Shodlik, Do‘stlik, Birlik nomlari -lik yordamida yasalgan toponimlar deb izohlangan. Qayd qilingan toponimlarning negizida aslida o‘zbek tilida avvalgi mavjud yasama etnonimlar (sirg‘ali, achamayli, qo‘shnamg‘ali, qushchi), kasb-hunar leksika (dasturxonchi, temirchi) yoki tilda o‘sha shaklda tayyor holda

uchraydigan turdosh otlar (shodlik, do‘stlik, birlik) yotibdi. Demak, keltirilgan holatlarda nom tarkibida kelgan, qayd qilingan qo‘shimchalar toponimlar emas, balki u uchun asos bo‘lgan toponegizlar, apellyativlarni yasagan va ushbu apellyativlar o‘sha shaklda tayyor holda toponimlar vazifasiga ko‘chgan. Mana shu kabi chalkashliklar o‘zbek toponimikasida hozirgacha bajarilgan toponimik tadqiqotlarning deyarli barchasida uchraydi.

Yangi nomlarning yasashida tilning tabiiy imkoniyatlaridan foydalanish afzalroqdir. Bu holat, o‘zbek tilining an‘anaviy imkoniyatlaridan, ayniqsa morfologik affiksatsiyalardan foydalangan holda yangi nomlarni yaratishning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Ammo, ba‘zi hollarda, boshqa tillardan o‘zlashtirilgan nomlar ham Qo‘shko‘pir tumani toponimlarida mavjud. Masalan, “Navbahor” nomi, arabcha “Nav” (yangi) va forscha “bahor” (bahor) so‘zlarining birikmasidan kelib chiqqan.

Mustaqillik davrida Qo‘shko‘pir tumani toponimlarida tarixiy va milliy o‘zlikni ifodalovchi nomlar qayta tiklandi. Bu jarayonda eski, kommunistik ideologiya bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar o‘chirilib, ularning o‘rnini millatning qadriyatlariga asoslangan yangi nomlar egalladi. Masalan, ko‘cha va maishiy xizmat ko‘rsatish joylarining nomlari milliy nomlarga o‘zgartirildi, bu o‘zgarish o‘zbek xalqining mustaqil yurt sifatidagi o‘zini ifodalashiga xizmat qiladi.

Toponim yasashi prinsplari jihatdan so‘z yasashidan farq qilmaydi. Har bir tildagi so‘z yasashi vositalari toponim yasashda ham ishtirok etadi. Ammo joy nomlari yasash jihatdan tekshirilar ekan, avvalo, atoqli otlarning o‘ziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini e‘tiborga olmoq zarur. Leksemalar toponimga aylangach, ular kategoriya jihatdan o‘zgaradi, ma‘lum funksional sferaga ega bo‘ladi, semantik ko‘lami qisqaradi, ya‘ni ma‘no mahsuslanishi sodir bo‘ladi. Shular bilan bog‘liq holda ularning formal-grammatik ko‘rsatkichlari ham o‘zgaradi.

Qo‘shko‘pir tumani toponimlarida joy nomlari yasashining ikki asosiy usuli morfologik va sintaktik usullar, tilning tabiiy imkoniyatlarini namoyon etadi. Mustaqillik yillarida Qo‘shko‘pir tumani toponimlarida ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, eski ideologik nomlar o‘rnini yangi, milliy va tarixiy an‘analar bilan bog‘liq nomlar egalladi. Bu o‘zgarishlar nafaqat tilning, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarini ham aks ettiradi.

Toponimika – bu nafaqat tilshunoslikning muhim sohasi, balki xalq tarixining, madaniyati va tafakkurining aksidir. Qo‘shko‘pir tumanining toponimlari ham bu jihatdan boy ma‘naviy merosni o‘zida mujassam etadi. Ushbu hudud toponimlarida morfologik va sintaktik usullar orqali yasalgan nomlar tilning tabiiy imkoniyatlarini ifodalaydi. Mustaqillik yillarida tuman toponimikasida yuz bergan o‘zgarishlar milliy o‘zlikni tiklash, tarixiy xotirani yangilash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Yangi toponimlar, ayniqsa, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yaratilgani bilan xalq ruhiyatini, ijtimoiy-siyosiy hayotni va milliy qadriyatlarni ifoda

etadi. Shunday ekan, toponimlarni o‘rganish orqali nafaqat til, balki jamiyat hayotining turli qatlamlarini chuqurroq anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Бегматов Э. Жой номлари –маънавият кўзгуси. –Тошкент, 1998. –Б.33
- 2.Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. - Тошкент, Фан, 1989. - 56 б.
- 3.Мингбоев Н. Топонимия Мирзачуля (Историко-лингвистический анализ): Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Баку, 1988. –21 с
- 4.Дўсимов З. Хоразм топонимлари. — Тошкент: Фан, 1985.